



DELIKT MAJBURIYATLARNI TARTIBGA SOLISH VA SHARTNOMADAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR

Jo'raqulova Hilola O'ktam qizi

Toshkent davlat yuridik universitetining magistr bosqichi talabasi

hilolajoraqulova@gmail.com.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7839442>

ARTICLE INFO

Received: 06th April 2023

Accepted: 16th April 2023

Online: 17th April 2023

KEY WORDS

Zarar(delikt), ayb, majburiyat.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar: shaxsiy nomulkiy huquq bo'lgan insonning yashash va sog'lom bo'lish huquqlariga daxl etilganda uning o'rnini qoplash, ma'naviy zarar, tovarning, ishning, xizmatning, nuqsonlari oqibatibati yetkazilgan zararni qoplash borasidagi huquqiy me'yorlar yoritib berilgan. Bu sohadagi qonunchilik hujjatlari va ularning rivojlanish tendensiyalari, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslanib xulosalar berilgan.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste'mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo'l qo'yilmaydi deb ta'kidlab qo'yilgan. Har kim o'z huquqlari va manfaatlarini tushungan holda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak, bunday bo'lgan hollarda esa huquqi buzilgan shaxs o'z huquqlarini tiklash uchun murojaat qilishga haqli.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Mazkur majburiyatlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ladigan qonun hujjatlaridan ko'zda tutilgan yuridik faktlar – zarar yetkazish fakti, delikt hisoblanadi.

Delikt majburiyatlarning vujudga kelish shartlari va yetkazilgan zarar uchun javobgarlik shartlari bir-biriga mos keladi. Yetkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini belgilashda qonun umummilliy tamoyillarga tayanadi. Huquqiy adabiyotlarda bu tamoyil "Bosh delikt tamoyili" deb ataladi.

Mazkur tamoyilga binoan, bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararining mavjudligiyoq, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatining g'ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi. Zarar yetkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor deb hisoblanadi. Shu munosabat bilan zarar yetkazuvchi javobgarlikdan o'z harakatlari huquqqa xilof emasligini va aybdor emasligini isbotlagandagina ozod qilinadi. Mamlakatimiz qonunchiligida ham bosh delikt tamoyili o'z ifodasini topgan. Zero, FKning 985-moddasida fuqarolik huquqi subyektiga yetkazilgan zarar zarar yetkazuvchi tomonidan to'liq hajmda



qoplanishi nazarda tutiladi. Albatta, bosh delikt tamoyilga muvofiq, zarar yetkazilganligini o'zidayoq uni qoplash lozimligini anglatmaydi. Buning uchun qonunda belgilangan bir qator shartlar bo'lishi lozim. Mazkur shartlarning mavjud bo'lmashligi esa zarar qoplanmasligini anglatadi. Fuqarolik qonunchiligida "bosh delikt" tamoyilining mazmunini tashkil etuvchi yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy shartlari belgilangan bo'lib, ular jumlasiga, zarar yetkazuvchi harakatining huquqqa xilofligi, huquqqa xilof harakat va zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, ayb kiradi.

Fuqarolik qonunchiligida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy shartlarini belgilovchi bosh delikt bilan birga bir qator vaziyatlar nazarda tutiladiki, ularning har birida maxsus qoidalar qo'llaniladi va alohida deliktlar deb yuritiladi. Malasan, oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 999-moddasi), voyaga yetmagan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 993-moddasi) va boshqalar.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning vujudga kelish asosini har xil adabiyotlarda turlicha talqin qilinganligini ko'rish mumkin, masalan ba'zi bosh delikt tamoyili haqida ham turlicha qarashlar mavjud, lekin ularning mazmunidan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, ular deyarli bir xil.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning javobgarlik jabrlanuvchining subyektiv fuqarolik huquqlarini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan yuridik fakt – zararining mavjudligi hisoblanadi. Javobgarlik shartlari esa javobgarlik asoslarini tasviflovchi va tegishli sanksiyalar qo'llashi uchun zarur bo'lgan qonunda belgilangan talablardir. Shunday qilib huquqiy javobgarlik asoslari va shartlari bir-biri bilan uzviy bog'liq unsurlar hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari xususida yakdil fikrlar mavjud emas.

Ba'zi mualliflar huquqbuzarga javobgarlikni yuklash uchun zarur bo'lgan umumiy, an'anaviy shartlar yig'indisi sifatida "fuqaroviy huquqbuzarlik tartibini" e'tirof etishadi.

Boshqa guruh mualliflar ushbu konsepsiyani tanqid qilishib, jinoyat huquqidagi tarkibi qoidalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq etilishini maqsadga muvofiq emas, deb hisoblashadi.

Delikt majburiyatlar bo'yicha subyektiv fuqarolik huquqining buzilishi zarar yetkazilish fakti sifatida baholanadi. Delikt javobgarlikning asosi deganda, fuqaro yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yoxud moddiy ne'matlar – fuqaroning hayoti, sog'ligiga zarar yetkazilish fakti tushuniladi.

Biroq, bunda muayyan xatti-harakarni huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik shartlari mavjud bo'lishi lozim. Javobgarlik asosi esa uni tatbiq etish imkoni mavjudligi anglatadi, lekin bunda ham qonun hujjatlarida belgilangan shartlar bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi bu huquqbuzarlik emas, zararining mavjudligi hisoblanadi. Muayyan faktning huquqbuzarlik ekanligini belgilovchi shartlar javobgarlik tatbiq etilayotganda aniqlanishi lozim.

Zarar (delikt) - bu nafaqat bor narsaning yo'qolishi yoki kamayishi, balki mulkka o'sishi, shaxsni ma'naviy boyitishi, uning umumiy ta'lim va kasbiy darajasini oshirishi mumkin bo'lgan narsalarni olmaslik va hokazo. Noqulay shaxsiyat holati jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi, ham zarar (ma'naviy shikastlanish), bu kompensatsiya qilinadi, bu umumiy qabul qilingan zarar, jismoniy shaxsning shaxsiga yoki mulkiga



yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ushbu zarar yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi kerak.

Ma'lumki, har doim odamlar o'zlari va atrofidagi dunyo o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mavjud. Jamiyatning rivojlanishi bunday o'zaro ta'sirning tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi va bu qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini deyarli hech qachon aytish mumkin emas.

Natijada, ko'pincha fuqarolar yoki tashkilotlarning mol-mulkiga zarar yetkaziladi va salbiy oqibatlar paydo bo'ladi. O'zlarini himoya qilish uchun fuqarolik huquqi subyektlari ehtiyot choralarini ko'rmoqda, sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, zarar etkazilishi mumkin bo'lgan zararni qisman qoplashga umid qilmoqda. Davlatlar ham o'z navbatida, ijtimoiy cheklov chorasi bo'lib, salbiy oqibatlariga olib kelgan taqdirda qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi.

Har birimizning tajribamiz bizni ishontiradiki: biz hamma narsani ta'minlay olmaymiz. Ko'pincha, biz turli xil beparvolikning salbiy natijasidan azob chekamiz, bu zararlar haqida qachon va qayerda sodir bo'lishi mumkinligini tahmin qilish deyarli mumkin emas.

Endilikda shartnomadan kelib chiqadigan zararlar haqida fikr yuritamiz, majburiyatlar asosan ikki xil turga bo'linadi: shartnomdan kelib chiqadigan majburiyatlar va shartnomadan tashqari majburlar.

Shartnomali majburiyatlar tuzilgan shartnomaga asosan vujudga keladi, shartnomasiz majburiyatlar esa o'zining vujudga kelishi uchun asos sifatida boshqa yuridik faktlarni nazarda tutadi, Barcha majburiyatlarning ikki turkumga bo'linishining ahamiyati shundan iboratki, shartnomali majburiyalarning mazmuni nafaqat qonun, shuningdek, majburiyatda qatnashuvchi shaxslarning kelishuvi bilan belgilanadi, shartnomaga asoslanmagan majburiyatlarning mazmunini belgilash esa qonunga yoki qonun va majburiyatdagi taraflarning birining erkiga bog'liq. Ularning farqlanishi, shuningdek, u yoki bu turkumdagi majburiyatlarning buzilishi natijasida vujudga keladigan huquqiy oqibatlarining xususiyatlariga bog'liq. Shartnomali majburiyatlar ularda qatnashuvchi taraflar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararni undirish shaklidagi javobgarlikni qo'llashga olib keladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarningning shartnomaviy majburiyatlardan farqli jihati shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar shartnoma predmetidan kelib chiqib belgilanadi.

Delikt institutining ahamiyati, uning funksiyalari fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ahamiyati va funksiyalari bilan bir xilda deb hisoblash mumkin, Zero delikt institut ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik kabi huquqni tiklovchi, huquqbuzarlikning oldini oluvchi, tarbiyaviy vazifani bajaradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. Fuqarolik huquqi (2-qism). T., "Adolat", 1999, 336 ----337- betlar
4. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi -T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet. Sarlavhada: Toshkent davlat yuridik universiteti.



5. Fuqarolik huquqi: [o'quv qo'llanma]. umumiy qism / R.Dj. Ruziyev, V.R. Topildiyev; mas'ul muharrir B.B. Samarxo'jayev. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 201 1. — 624 b. I. Topildiyev, Vohid Raximovich. ISBN 978-9943-05-414-1
6. Rahmonqulov Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). /Huqiqshunoslik ixtisosi bo'yicha oliy o'quv yurtlari "Xususiy huquq" yo'nalishi magistratura nashriyoti, 2009.-316 bet. Sarlavhada: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, talabalari uchun. -T.: TDYI
7. Н.Имомов, Н.Эгамбердиева, Н.Ашурова Зарар етказишдан келиб чиқадиган (деликт) мажбуриятлар. Ўқув қўлланма. -Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2013.-225 бет. Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, ТДЮИ.
8. On the development of strict liability by way of administration of justice and on interpretation of the provisions of fault-based liability with results which are similar to strict liability, see also: H. Kötz, G. Wagner (Note 11), p. 135..